

**ILK GO'DAKLIK DAVRIDA BOLALAR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Nurmatova Shoxidaxon Shorobovna

Andijon viloyati Qo'rg'on tepa tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixolog

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk go'daklik davridan boshlab bolada rivojlanish jarayonlari va xususiyatlari uning o'sib ulg'ayishi va kamol topishi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ilk go'daklik, yosh davri, psixologik xususiyat, jarayon, yo'nalishlar, psixologiya.

Ilk bolalik va maktabgacha yoshdag'i bolalarning psixologik xususiyatlarini ilmiy, nazariji jihatlarini o'rganish oliy pedagogik ta'limda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazaridan ta'kidlash lozimki, jamiyat - bu insonlar, shu jumladan bolalar muammosi majmuidir. Demokratik jamiyatning rivojlanishi va ma'naviy salohiyati ko'p jixatdan ana shu bolalarga beriladigan psixologik, tarbiyaviy ta'lim mazmuniga bog'liqdir. Go'dak tug'ilganidan ma'lum yoshga qadar, ya'ni borliqni eng oddiy tarzda anglaguniga qadar individ sanaladi. Bu davrda ham bola atrofdagi turli kishilar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, istaklarini xatti-harakatlari, ovozi yordamida ifodalashga intiladi. Biroq, uning bu harakatlari ongli tarzda emas, balki shartli reflekslar yordamida tashkil etiladi. Demak, biologik mavjudot sanaladigan individ shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini anglashi, shuningdek, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak. Go'daklik davri bolaning tug'ilganidan bir yoshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davrda bola tashqi muhitga moslashishi uchun ma'lum darajada yetilgan nerv tizimi bilan tutiladi. Go'daklik davri inson hayotidagi organik ehtiyojlarni (kislorodga, ovqatga, issiq yoki sovuqqa) qondirishga nisbatan yo'naltirigan xatti-harakatlarning tug'ma, instinctiv shakllari sof holda kuzatiladigan yagona davr hisoblanadi. Insonga xos bo'lgan xatti—harakatlar, yangi tajribalarni egallash uchun beqiyos imkoniyatlarning borligi go'daklik yoshidagi bolalarining asosiy xususiyatlaridir. Agar organik ehtiyojlar yetarli darajada qondirib borilsa, ular o'zlarining asosiy bo'lish ahaliyatini yo'qotadi: to'g'ri tashkil etilgan kun tartibi, rejim va tarbiya natijasida bola psixik rivojlanishi uchun asos bo'ladigan taassurotlarga, harakatga, muloqotga nisbatan yangi turdag'i ehtiyojlar turkumi yuzaga keladi. Bola tug'ilishining birinchi haftasidanoq uning ko'rish va eshitish sezgilari jadal suratda rivojlanadi. Bola harakatlanayotgan narsani kuzata boshlaydi. U turli ovozlarga jumladan, kattalarning tovushlariga e'tibor bera boshlaydi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning miya og'irligi kattalar miyasining 1/4 qismiga to'g'ri keladi, nerv hujayralarning soni esa xuddi kattalarniki kabi bo'lib, lekin ular yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi.

Ilk go'daklik davri - bu bolaning himoyasiz, kam harakat, harakat holatidan juda jadal ravishda rivojlanadigan, quvnoq bolaga aylanish davridir. U qisqa vaqt ichida kattalar bilan munosabat o'rnatadi, predmetlarni ushlashga va ulardan foydalanishga o'rganadi. U atrof olamdag'i narsalarni kuzatadi, predmetlarni qo'li bilan ushlab, ularni qandayligini bilishga intiladi, tovushlarga e'tibor beradi va predmetlar yordamida shu tovushlarni o'zi yaratishga harakat qiladi. U o'z onasi va boshqa yaqinlari bilan emotsiunal munosabatga kirishadi. Go'dak yoshidagi bola ham jismonan, ham psixik, ham ijtimoiy jihatdan juda tez rivojlanadi. Juda qisqa vaqt ichida atrofidagi hodisalarga juda kam reaksiyasi bo'lgan boladan, faol, tez ilg'aydigan, harakatchan yordamga chaqira oladigan, kattalarning yaqin kelishidan quvonadigan bolaga aylanadi. Go'daklik davrida 4-5 oyligidan boshlab, bola o'z yaqinlarini begonalardan ajraga boshlaydi. Kattalar bilan emotsiunal munosabat shu yoshdag'i bolalarining asosiy yetakchi faoliyati bo'lib, bola psixik taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Kattalarning doimiy ravishda bola bilan birga bo'lishi, unga nisbatan diqqatning qaratilganiga odatlash, uning

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 3, ISSUE 1, 2024

o‘yinchoqlarga nisbatan qiziqishining susayishiga olib kelishi mumkin. Tarbiyaning to‘g‘ri olib borilishi bolaning kattalar bilan bo‘ladigan muomala-munosabatini predmetlar, o‘yinchoqlar bilan munosabatining almashinishiga olib keladi. Kattalar yordami bilan bajariladigan barcha xatti-harakatlari bolaning kelgusi psixik rivoji uchun asos bo‘ladi. Kattalarning bolaga nisbatan emotsiyal munosabati, ularning gaplariga bolaning o‘z diqqatini qaratish, javob qaytarishga harakat qilishi, ba’zi so‘zlarni yodida saqlab qolib, emotsiya bildirish, diqqat, xotira, nutq va boshqa bilish jarayonlarining rivojlanishiga zamin bo‘ladi, Ikki oylik davridan boshlab bolada oddiy ranglarni ajratish, 3-4 oyligidan boshlab, esa predmetlarning shaklini ajratish layoqati yuzaga kela boshlaydi. Go‘dak bola 2 oylik vaqtidan boshlab, o‘z onasining yuzini va ovozini o‘zgalarnikidan ajrata boshlaydi. 2-3 oylikdan boshlab esa, onasining tabassumi va kulgusiga tabassum va turli harakatlar bilan javob qaytaradi. “3-4 oyligidan boshlab, bolalar yaqinlariga o‘z harakatlari bilan ko‘rish, eshitish yoki gapirishni xohlayotganligini ko‘rsatadilar, 8 oyligidan boshlab esa, bola o‘zgacha muhit va begonalar qo‘liga tushsa, o‘z xavotirini yig‘isi orqali namoyon etadi. Bu xavotir 14-18 oyligada asta- sekinlik bilan kamaya boshlaydi. 2-3 oylik bolalarda yuzaga keladigan narsalarni ushlay olish harakatlarining shakllanishi ularda predmetlarning shakli va hajmini idrok qilishlarini rivojlanishiga olib keladi. Bir yosha yetgan bolada atrof muhitni bilishga qiziqishi va rivojlanayotgan bilish faolligi ko‘zga tashlanadi.

Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot. Ilk bolalik davri- Go‘daklik davridan so‘ng rivojlanishning yangi bosqichi ilk bolalik (1-3 yosh) davri boshlanadi, Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagiligi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi - muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to‘g‘ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetlash faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi. Tikka va to‘g‘ri yura olish imkonini bolani doimiy ravishda yangi ma’lumotlarni egallahsga zamin bo‘ladi. Bu yoshdagagi bolalar o‘z xatti-harakatlari bilan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishishga intiluvchan bo‘ladilar. 3-7 yoshgacha bo‘lgan davr bog‘cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda 3 davrga:

(3-4 yosh) kichik maktabgacha davri

(4-5yosh) kichik bog‘cha yoshi o‘rtalik maktabgacha davr (o‘rtalik bog‘cha yoshi)

6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog‘cha yoshilarga ajratish mumkin.

Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o‘tgan ajdodlari tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti –xarakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Mashxur rus pedagoglaridan biri Lesgaftning fikricha insonning bog‘cha yoshdagagi davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serxarakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatnining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko‘rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabat orqali bola axloq normalari, kishilarni anglash, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bola endi o‘z gavdasini juda yaxshi boshqara boshlaydi. Uning xarakati muvofiqlashtirilgan holda bo‘ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlna boshlaydi. U yangiliklarni egallahsga nisbatan o‘zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi. O‘zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir.

Yoshning ulg‘ayib borishi, psixik jarayonlarning inson rivojlanishidagi qonuniyatlar, undagi yetakchi omillar hamda inson hayot yo‘lining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos xususiyatlar yosh davrlari psixologiya fanining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Ma’lumki, shaxs tarkib topish jarayonining psixologik qonuniyatlarini, uning ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, ta’lim va tarbiyaning nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqiyatlari hal etib bo‘lmaydi. Ayniqsa ilk go‘daklik davrida vujudga keladigan psixologik xususiyatlarni tadqiq etmasdan turib, ayni shu yosh davrida paydo bo‘layotgan turli ko‘rinishdagi muammolarni bartaraf etish imkonsiz. Har bir shaxs xoh bola bo‘lsin, xoh katta odam o‘zgalardan farq qiladi. Shaxsni o‘zgalardan farqlovchi jihatlar individuallik sanaladi. Individuallik shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarning aks etishi sanaladi.

Tarbiya jarayonini tashkil etishda bola shaxsini puxta o‘rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo‘lish va uning individual xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Individual yondashuv o‘quvchining aqliy qobiliyati, bilishga bo‘lgan qiziqishi va iste’dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega. Bolaning harakatlari uning ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ongli ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘oziyev, E. (2010). Umumiyy psixologiya. Yangi asr avlod.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiyy psixologiya. TDPU.
3. Almetov N. Pedagogika: savollar va javoblar // O‘quv qo‘llanma. –Almaty: Ылым, 2001.
4. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanova, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
5. Bargida Baxadirovna Mirjalilova, & Sojida Umrzoqovna Allayorova (2021). GO'DAKLIK DAVRINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, 2 (Special Issue 1), 408-412.